Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320780

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

masalalarida xatolardan qochishga yordam beradi va davlat organlari bilan munosabatlarni osonlashtiradi. Bu esa korxonaning barqaror ishlashi uchun muhimdir. Buxgalteriya hisobi orqali olingan ma’lumotlar asosida korxona kelajakdagi faoliyatini rejalashtirishi, risklarni tahlil qilishi va imkoniyatlarni baholashi mumkin bo‘ladi.

Xulosa :

Xulosa qilib aytganda, korxona samaradorligi va buxgalteriya hisobi tahlilining o‘zaro bog‘liqligi moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlik va uzoq muddatli muvaffaqiyatning poydevorini yaratadi. Zamonaviy iqtisodiyotda bu jarayonlarni samarali tashkil etish har bir korxona uchun dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda korxona samaradorligi va buxgalteriya tahlili iqtisodiy faoliyatning poydevori hisoblanadi. Samaradorlikni oshirish korxonaga raqobatbardoshlikni saqlash, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsiyalarni joriy etishda yordam beradi. Shu bilan birga, buxgalteriya tahlili moliyaviy holatni to‘g‘ri baholash, qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash va risklarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Global iqtisodiyot va raqamlashtirish sharoitida ushbu jarayonlarning dolzarbligi ortib bormoqda. Shuning uchun korxonalar samaradorlik va moliyaviy tahlilni ustuvor vazifa sifatida ko‘rib, ularni doimiy ravishda takomillashtirishga e’tibor qaratishlari zarur. Bu esa korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

1. "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.13.04.2016 y.
2. Boboyev, A., Hamroyev, H. "Moliyaviy tahlil va boshqaruv hisobi". Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019.
3. Pavlova, L.N. "Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil". Moskva: Infra-M, 2020.
4. Rahimov, I. "Korxona samaradorligi: metodlar va amaliyot". Ilmiy maqola, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2021-yil.
5. https://maaw.info /ArticleSummaries/ArtSumSharman2020.
6. www.iqtisodiyot.uz
7. www.mf.uz

HUDUDLAR KESIMIDA ELEKTR ENERGIYASI SARFINING OSHISHIGA OLIB KELADIGAN OMILLAR TAHLILI

Doliyev Shoxabbos Qulmurot o‘g‘li
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali katta o‘qituvchisi
E-mail:shokhabbos9109@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada hududlar kesimida elektr energiyasi sarfining oshishiga olib keladigan omillar va issiqxona gazlarning salbiy ta’sirlar tahlil qilingan. Hududlar kesimida elektr energiyasi sarfining oshishiga olib keladigan omillar sifatida aholi sonining o‘sishi, korxonalar sonining o‘sishi, tashkilotlar sonining o‘sishi, aholi turmush darajasining oshishi va mavsumiy omillar hamda elektr energiyasini uzatish linyalarda yo‘qotishlar ko‘rib chiqilgan.

Issiqxona gazlarning salbiy ta’sirlarga; -ekotizimlarga zarari-issiqxona gazlari hayvonlar va o‘simliklar yashash muhitini o‘zgartirishi, ko‘plab turlarni yo‘q bo‘lib ketish xavfiga olib kelashi; -sog‘liq muamolari-havo sifatining yomonlashuvi nafas olish yo‘llari kasalliklari va yurak-qon tomir tizimi muammolarini oshirishi aytib o‘tilgan.

Published: 23.12.2024
Cite this article: Doliyev Shoxabbos Qulmurot o‘g‘li (2024). Hududlar kesimida elektr energiyasi sarfining oshishiga olib keladigan omillar tahlili. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320780
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Kalit so‘zlar: Energiya samaradorligi, issiqxona gazlari, infratuzilma, muqobil energiya, elektr energiyasi, izolyatsiyalangan elektr liniyalar.

Kirish: O‘zbekiston so‘nggi o‘n yillikda tog‘-kon sanoati, resurslarni qazib olish va qayta ishlash sohasidagi muvaffaqiyatlari tufayli sezilarli iqtisodiy o‘sishga erishdi. Ammo bu o‘sish ayrim muammolardan xoli emas. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat sanoatining yuqori energiyatalabligi va qazib olinadigan yoqilg‘ilardan keng foydalanishi natijasida issiqxona gazlarini chiqarish darajasi bo‘yicha dunyoda beshinchi, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida esa birinchi o‘rinda turadi.

2023-yil qish faslida O‘zbekistonda minglab odamlar anomal sovuq kunlarda deyarli ikki hafta davomida barqaror energiya ta’minotisiz qolishga majbur bo‘ldi. Ushbu uzilishlar eskirgan infratuzilmaning zaifligini va energiya tejovchi texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganini ochib berdi. Ba’zi hududlarda tabiiy gaz yoki elektr energiyasi yetishmagani sababli, aholining ko‘pchiligi uylarini isitish uchun ko‘mir yoqishga o‘tdi. Bu esa havo sifati yomonlashuvi va issiqxona gazlari chiqindilarining ko‘payishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Jumladan, Issiqxona gazlari hayvonlar va o‘simliklar yashash muhitini o‘zgartiradi, ko‘plab turlarni yo‘q bo‘lib ketish xavfiga olib keladi. Havo sifatining yomonlashuvi nafas olish yo‘llari kasalliklari va yurak-qon tomir tizimi muammolarini oshiradi.

Butun dunyoda umumiy issiqxona gazlari chiqindilarining taxminan 40 foizi qurilish sektoriga (yoritish, isitish, issiq va sovuq suv ta’minoti uchun elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish) to‘g‘ri keladi.

Mazkur o‘rtacha ko‘rsatkich O‘zbekistonga ham taalluqli bo‘lib, O‘zbekistonning birinchi BMT IO‘DK(iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Doiraviy konvensiyasi) bo‘yicha ikki yillik yangilangan hisobotiga ko‘ra, bu yerda mamlakatdagi umumiy energiya iste’molining 22 foizi sanoat va qurilishga, 21 foizi esa uy-joy qurilishiga to‘g‘ri keladi.

So‘ngi yillar mobaynida O‘zbekiston aholisining soni ko‘payishi bilan energiyaga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Pirovardida mamlakatning energiya zaxiralariga bo‘lgan ehtiyoj ortib borgan sari energiyaga o‘sib borayotgan talab ham qondirilishi zarurdir. Bu talabga bo‘lgan elektr energiyasini samaradorlik ko‘rsatkichini yaxshilashga bo‘lgan ishlarni rivojlantirish va takomillashtirish zarurati paydo bo‘ladi.

Hududlar kesimida muqobil energiya ishlab chiqarish hajmi qanchani tashkil qilishi va bu hajmni oshirish orqali elektr energiya samoradorlik ko‘rsatkichini oshirish hamda boshqa tur orqali elektr energiyasini ishlab chiqarishdagi atrof muhitga ajralib chiqayotgan zaxarli gazlarni ulushini kamaytirish imkoniyat paydo bo‘lishi mumkin [1].

Masalaning quyilishi va tadqiqot usuli: Hududlar kesimida elektr energiyasi sarfining oshishiga olib keladigan omillar quyidagilardan iborat:


Aholi sonining o‘sishi: Yangi uy-joylar, maishiy texnika va elektr uskunalaridan foydalanishning ortishi bilan energiya iste’moli ko‘payadi.

Yillar kesimida qashqadaryo aholisi soni o‘sishi statistik ko‘rsatkichi 1-jadvalda ko‘rsatilagan. Bu jadavaldagi ma’lumotlardan foydalanib elektr energiyasining isrofini kamaytirish bo‘yicha ekonometrik modellar qurishda ishlatishimiz mumkin.

1-jadval

Yillar kesimida	Aholi soni (ming kishi)
2010	2616,1
2011	2722,9
2012	2777,8
2013	2831,3
2014	2895,3
2015	2958,9

2016	3025,6
2017	3088,8
2018	3148,4
2019	3213,1
2020	3280,4
2021	3335,4



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida aholi sonining o'sishi


Korxonalar sonining o‘sishi: Ishlab chiqarish hajmining kengayishi va yangi texnologiyalarning joriy etilishi natijasida elektr energiyasiga bo‘lgan talab oshadi [2].

Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o‘sishi 2-jadvalda ko‘rsatilgan. Bu jadavaldagi ma’lumotlardan foydalanib elektr energiyasining isrofini kamaytirish bo‘yicha ekonometrik modellar qurishda ishlatishimiz mumkin.

2-jadval

Yillar kesimi	Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o‘sishi
2010	15627
2011	18078
2012	20347
2013	20437
2014	19868
2015	19570
2016	18557

2017	18005
2018	18471
2019	20915
2020	25259
2021	30180
2022	36168
2023	41612



2-rasm. Qashqadaryo viloyitad faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

Tashkilotlar sonining o‘sishi: Ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa davlat hamda xususiy tashkilotlar sonining ko‘payishi energiya iste’molini oshiradi.

Aholi turmush darajasining oshishi: Yangi texnika vositalari va jihozlardan foydalanish ko‘lami kengayishi bilan elektr energiyasiga bo‘lgan talab o‘sadi.

Texnologik taraqqiyot: Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, jumladan, zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari va qurilmalarining foydalanilishi elektr energiya sarfini oshiradi.

Mavsumiy omillar: Issiq yoz va sovuq qish sharoitida konditsionerlar va isitish tizimlarining ko‘p ishlatilishi energiya sarfini oshiradi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi: Elektr energiyasiga isrofiga ta’sir etuvchi omillarni bilish orqali ekonometrik modellar tuzish va ular asosida kelgusida elektr energiyasi qay daraja o‘zgarishi ko‘rsatgichlar prognoz qilishimiz mumkin. Hozirgi va yaqin kelajakdagi ustuvor vazifalar zavodlarni samaraliroq boshqarish, yuqori darajada foydalanish imkoniyati, yuklamani yaxshiroq boshqarish, uzatish yo‘qotishlarini kamaytirish, tarqatish tizimini modernizatsiya qilish, hisob-kitob va yig‘imni takomillashtirish, energiya samaradorligi, energiya auditi va energiyani boshqarishdir. Bularning barchasi elektr energetika tizimiga eng kam iqtisodiy va ekologik xarajatlar bilan elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash imkonini beradi. Elekt energiya isrofi quydagi holatlarda ham mavjud bo‘ladi. Elektr energiyasini uzatishda

yo‘qotishlar liniyalarning turiga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Ochiq simli (aluminiy) liniyalar va izolyatsiya qilingan liniyalardagi yo‘qotishlar quydagi ko‘rinishda bo‘ladi.

Ochiq simlar odatda yuqori o‘tkazuvchanlikka ega aluminiy materialidan tayyorlangan bo‘lsada, qarshiligi past bo‘lgan misga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Bu, ayniqsa, uzun masofalarga energiya uzatilganda, elektr energiyasining issiqlik shaklida yo‘qolishiga olib keladi. Ochiq simli tarmoqda yo‘qotishlar umumiy quvvatning 5-10% gacha bo‘lishi mumkin. Havodagi shamol, yomg‘ir va qor ochiq simlarning qarshiligini oshiradi, natijada yo‘qotishlar ko‘payadi. Masalan, qishda qordan hosil bo‘ladigan muz qatlami elektr oqimi o‘tishini murakkablashtiradi. Yuqori kuchlanishli ochiq liniyalarda havo ionlanishi natijasida korona yo‘qotishlari yuzaga keladi. Bu yo‘qotishlar, ayniqsa, yuqori kuchlanish (220 kV va undan yuqori) bilan ishlaydigan tarmoqlarda ahamiyatlidir.

Izolyatsiya qilingan simlarda elektr yo‘qotishlari, asosan, oqim o‘tgan qismning yaxshi izolyatsiyalanganligi tufayli kamayadi. Aluminiy yoki mis kabellarning yuqori sifatli izolyatsiyasi issiqlik yo‘qotishlarini ancha kamaytiradi. Zamonaviy izolyatsiya qilingan kabellarda yo‘qotishlar 1-3% oralig‘ida bo‘lishi mumkin. Izolyatsiya qilingan liniyalar tashqi sharoitlarga, jumladan, namlik va havo haroratiga kamroq sezgir. Bu ularni o‘ta sovuq yoki issiq sharoitlarda samarador qiladi. Izolyatsiya elektromagnit to‘lqinlarning atrofga tarqalishini oldini oladi, natijada ortiqcha energiya isrofi kamayadi[3, 4].

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, aholi sonining o‘sishi, korxonalar sonining o‘sishi, tashkilotlar sonining o‘sishi, aholi turmush darajasining oshishi kabi omillarning aynan bir hududdagi yillar kesimida o‘zgarish statistik ma’lumotalrini to‘plash zarur. To‘plangan ma’lumotlardan foydalanib elektr energiyasini sarfini kamaytirish va samaradorligin oshirish bo‘yicha ekonometrik modellar qurish kerak. Bundan tashqari uzatish linyalaridagi energiya yo‘qotilishini ham o‘rganish taklifi qilinadi. Izolyatsiya qilingan liniyalar ochiq simli liniyalarga qaraganda samaraliroq bo‘lib, elektr energiyasini uzatishdagi yo‘qotishlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, izolyatsiya qilingan liniyalar xavfsizlikni oshiradi va tashqi ta’sirlarga nisbatan barqarorroq ishlaydi. Shu sababli, zamonaviy energiya uzatish tizimlarida izolyatsiya qilingan liniyalar ko‘proq qo‘llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya orqali iqlim bo‘yicha maqsadlarga erishish. https://www.gazeta.uz/oz/2023/04/22/column/

2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI. https://stat.uz/uz/

3. Types of Cable Installations in Electrical Network . https://electrical-engineering-portal.com/types-of-cable-installations-in-electrical-network

4. Modern Power System Analysis Fourth Edition. https://www.academia.edu/104784978/Modern_Power_System_Analysis_Fourth_Edition

FOYDA SOLIG‘I HISOBOTI, UNI TO‘LASH VA HISOBDA AKS ETTIRISH

Timurova Durdona, Abdumuminova Zaxro
Guliston davlat universiteti “Raqamli iqtisodiyot va innotsiyalar” fakulteti talabalari